JIZZAX VILOYATI G‘ALLAOROL TUMANI HOKIMINING

QARORI

2024-yil 29-oktabr | 386-3-45-Q/24 | G‘allaorol tumani hokimligi

Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni 2025 yilda ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-40-moddalariga hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj, ish topishda qiynalayotgan va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarining eng kam sonini belgilash va zaxiraga qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga asosan va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2023-yil 21-dekabrdagi PQ-401-son qarorining 8.2-bandiga asosan tumanda 2025 yilga ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini eng kam sonini belgilash va ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish maqsadida

Q A R O R Q I L A M A N:

O‘zbekiston Respublikasi “Aholi bandligi to‘g‘risida”gi Qonunining 39-40-moddalariga asosan ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun xodimlarning ro‘yxatdagi o‘rtacha soni 20 nafar kishidan ortiqni tashkil etadigan korxona, muassasa va tashkilotlarga 2025 yil uchun 7 foizgacha (Z foizi NBSh lar uchun) **jami 94 ta ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yish** ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Shu jumladan:

o‘n to‘rt yoshgacha va nogiron bolalari bo‘lgan yolg‘iz ota, yolg‘iz va ko‘p bolali ota-onalar uchun (15 kishi);

umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlar, shuningdek, oliy ta’lim muassasalarining davlat grantlari bo‘yicha ta’lim olgan bitiruvchilari uchun (52 kishi);

safarbarlik chaqiruvi zaxirasida xizmatni o‘tagan va O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari saflaridan muddatli harbiy xizmatdan bo‘shatilgan shaxslar uchun (4 kishi);

nogironlar va pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun (3 kishi);

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sudning qaroriga ko‘ra tibbiy tusdagi majburlov choralari qo‘llanilishidan ozod qilingan shaxslar uchun (5 kishi);

tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiyaoldi yoshidagi shaxslar uchun (13 kishi);

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari. (0 kishi);

oilaviy (maishiy) zo‘rovonlik natijasida jabrlanganlar uchun (1kishi)

Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun (1 kishi)

2.Ushbu toifa shaxslar uchun ish o‘rinlari xodimlar tomonidan o‘zlarining mehnat majburiyatlarini to‘siqlarsiz bajarishini ta’minlaydigan sanitariya-gigiena normalari va mehnat sharoitlariga muvofiq bo‘lishi ta’minlansin, xususan,

yolg‘iz ota, yolg‘iz ona va 14 yoshgacha bo‘lgan nogiron bolalari bor ko‘p bolali ota-onalar uchun - bolalarni tarbiyalash va mehnat majburiyatlari bo‘yicha vazifalarni uyg‘unlashtirish imkonini beradigan, o‘zgaruvchan ish jadvaliga ega bo‘lgan ish o‘rinlari;

o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi muassasalarini tamomlagan yoshlarga, shuningdek oliy o‘quv yurtlarining davlat grantlari asosida ta’lim olgan bitiruvchilari uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridan muddatli harbiyxizmatdan bo‘shatilganlar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari;

nogironlar uchun - mehnat sharoitlari bo‘yicha attestatsiyadan o‘tkazilgan hamda xodimga ish jarayonlarini to‘sqinliksiz bajarish imkonini (sog‘lig‘ining ahvoli va mehnat faoliyatiga nisbatan belgilangan zid ko‘rsatkichlar hisobga olingan holda) beradigan ish o‘rinlari;

tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan pensiya yoshiga yaqinlashib qolgan shaxslar uchun - maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan yoki sud qaroriga ko‘ra tibbiy yo‘sindagi majburlov choralariga tortilgan shaxslar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligi hisobga olingan holdagi ish o‘rinlari, muayyan kasb-hunarga, malakaga ega bo‘lmagan shaxslar uchun esa - maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

odam savdosidan jabrlangan shaxslar uchun - ularning kasb bo‘yicha tayyorgarligiga muvofiq bo‘lgan ish o‘rinlari.

oilaviy (maishiy) zo‘rovonlik natijasida jabrlanganlar uchun maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

Atrofdagilar uchun xavf tug‘dirmaydigan ijtimoiy ahamiyatli kasalliklardan azob chekuvchi shaxslar uchun maxsus malakani talab qilmaydigan ish o‘rinlari;

3.Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yilgan ish o‘rni ilgari ushbu ish o‘rnini egallab kelgan shaxs bilan tuzilgan mehnat shartnomasi to‘xtatilishi munosabati bilan bo‘shab qolganda bu haqda tashkilot 10 kun muddatda tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limini yangidan ochilgan bo‘sh ish o‘rni to‘g‘risida xabardor etishi belgilansin.

4.Mulkchilik shaklidan qat’i nazar barcha korxona, muassasa va tashkilotlar rahbarlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2017 yil 5 dekabrdagi 965-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Ijtimoiy muhofazaga muhtoj ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish tartibi to‘g‘risida”gi Nizomga muvofiq ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini belgilangan soni hisobida yil boshlangungacha 10 kundan kechikmay 25 foiz, qolgan qismini band qilib qo‘yishni keyingi kalendar yilning birinchi choragida ta’minlasinlar.

Ish o‘rinlarini zaxiraga qo‘yilgan tashkilotlar har oyning xisobot oyidan keyingi kunning 5- sanasigacha tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limiga ushbu toifadagi shaxslarni ishga joylashtirilishi to‘g‘risida belgilangan tartibda axborot taqdim etsinlar.

5.Ushbu qarorni bajarmagan tashkilotlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda jarima solinadi.

Belgilab qo‘yilsinki, mahalliy davlat hokimiyati organining ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish bo‘yicha qarorini bajarmaganlik uchun jarimani to‘laganlik tashkilotni band qilib qo‘yiladigan ish o‘rinlarining belgilangan sonini tashkil etishdan ozod qilmaydi.

6.Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish sonidan ortiqcha ish o‘rinlari tashkil etilgan taqdirda sarflangan mablag‘larning bir qismini tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka

ko‘maklashish bo‘limi bilan tuzilgan shartnoma asosida Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi mablag‘lari hisobidan qoplanishi ta’minlasin.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularning bandligiga ko‘maklashish hamda ijtimoiy faolligini yanada oshirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» 2021 yil 21 dekabrdagi PQ-57-son qaroriga muvofiq Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan nogironligi bo‘lgan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav jamg‘armasida (kapitalida) davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir xodim uchun 6 oy davomida har oyda bazaviy hisoblash miqdorining 1,5 baravari miqdorida subsidiya ajratilsin.

8. Vazirlar Mahkamasining 2023 yil 5 sentabrdagi “Aholining ijtimoiy ehtiyojmand ayrim toifalarini qo‘llab-quvvatlash va ularning bandligiga ko‘maklashish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida“gi 450-sonli qaroriga asosan Bandlikka ko‘maklashish davlat jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan jazoni ijro etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni ishga qabul qilgan ish beruvchilarga (budjet tashkilotlari, davlat korxonalari, ustav (fondi) kapitalida davlat ulushi 50 foiz va undan ortiq bo‘lgan yuridik shaxslar bundan mustasno) har bir shaxs uchun uch oydan ortiq muddatda mehnat faoliyatini davom ettirgandan so‘ng bazaviy hisoblash miqdorining uch baravari miqdorida bir martalik subsidiya ajratilsin.

7.Ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish qidirishda qiynalayotgan shaxslar uchun band qilib qo‘yish 1- ilovaga asosan tasdiklansin.

8.Tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish bo‘limi bir hafta muddatda ushbu qarorni ilovada ko‘rsatilgan tashkilot rahbarlari e’tiboriga yetkazsin va mazkur qarorningbajarilishini ta’minlasin.

9.Ushbu qaror rasman e’lon qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

10.Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining 1-o‘rinbosari T.Qo‘chqorov zimmasiga yuklatilsin.

Tuman hokimi **J.Oqboyev**

G‘allaorol tuman hokimining
2024-yil 29-oktabrdagi
386-3-45-Q/24-son qaroriga
1-ilova

Галлаорол туманида фаолият курсатаётган корхона ва ташкилотларда ишловчилар тугрисида
М А Ъ Л У М О Т

Т/р	ИНН	Хужалик юритувчи субъктлар номи	жойлашган манзили	Сектор	30.07.2024 йил Ҳолатига ишловчилар сони	Белгиланган квота			Низомнинг 7-бандига асосан 2019 йилда ишга жойлаштирилган шахслар сони четирилган	***Яратилиши керак бўлган квота иш ўринлари режаси***	Шу жумладан иш ўринлари сони тоифалар бўйича								
						7%	3%	Жами:			Ўн тўрт ёшгача болалари бўлган ва ногирон болалари бўлган ёлғиз ва кўп болали ота-оналар учун	Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларини тамомлаган ёшлар, шунингдек, олий таълим муассасаларининг давлат грантлари бўйича таълим олган	Сафарбарлик чақирик захирасида хизматни ўтаган ва Ўзбекистон Республикаси Қуролли Кучлари сафларидан муддатли харбий хизматдан бўшатилган шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Ногиронлар учун	Пенсия олди ёшидаги шахслар учун банд қилинган иш ўринлари сони	Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган ёки суднинг қарорига кўра тиббий тусдаги мажбурлов чоралари қўлланилишини озод қилинган шахслар учун	Атрофдагилар учун хавф туғдирмайдиган ижтимоий ахамиятли касалликлардан азоб чекувчи шахслар учун махсус малакани талаб қилмайдиган иш ўринлари	оилавий (маиший) зўровонлик натижасида жабрланганлар
1	305296134	7- сонли Эрка боложон МТМ	Дустлик МФЙ	1	50		2	2		2		1			1				
2	207057242	12-sonli "MARJON" nomli maktabgacha ta'lim muassasasi	Marjonbuloq shaharchasi	3	83		2	2		2	1	1							
3	206886225	1-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ittifoq QFY	3	95		3	3	2	1		1							
4	206886669	2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Guliston QFY	2	49		1	1		1		1							
5	206886447	3-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	4	71		2	2		2	1	1							
6	206874010	6-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Korizquduq QFY	3	70		2	2	1	1		1							
7	206874027	7-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Korizquduq QFY	3	79		2	2	1	1		1							
8	206886272	11-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Korizquduq QFY	3	57		2	2	1	1		1							
9	206886074	27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Madaniyat QFY	4	88		3	3	2	1		1							
10	206908425	28-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Кашкабулок мфй	2	63		2	2	1	1		1							
11	206886122	29-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	Abdukarim shaharchasi	2	69		2	2		2	1	1							
12	206886185	31-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Buloqboshi QFY	2	51		2	2		2	1	1							
13	206886233	32-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Узунбулок мфй	2	89		3	3		3	1	1	1						
14	206886193	33-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Узунбулок мфй	2	75		2	2		2	1				1				
15	206886201	34-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Guliston QFY	2	54		2	2	1	1					1				
16	206906364	36-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	Xonimqo'rg'on QFY	1	59		2	2	1	1		1							
17	206886099	38-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Qipchoqsuv QFY	3	31		1	1		1					1				
18	206886011	40-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Qipchoqsuv QFY	3	39		1	1		1					1				
19	206905460	41-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Qipchoqsuv QFY	3	52		2	2		2	1	1							

20	206886408	44-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Дустлик мфй	1	223	16	7	9	6	3		1		1	1				
21	206909835	48-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	4	66		2	2	1	1		1							
22	206886684	51-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ittifoq QFY	3	60		2	2		2	1	1							
23	206886082	59-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	4	49		1	1		1					1				
24	206886161	61-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Guliston QFY	2	54		2	2		2	1								1
25	206886368	62-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Moltob QFY	1	64		2	2		2			1		1				
26	206886375	63-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, кукгумбаз мфй	4	44		1	1		1		1							
27	206886541	65-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, G'ubdin QFY	1	42		1	1		1		1							
28	206886462	67-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Mirzabuloq QFY	1	34		1	1		1	1								
29	206886390	68-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Gulchambar QFY	3	45		1	1		1		1							
30	206886676	70-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Qipchoqsuv QFY	3	38		1	1		1		1							
31	206921704	72-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Qipchoqsuv QFY	3	36		1	1		1			1						
32	206886139	75-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Madaniyat QFY	4	49		1	1		1		1							
33	206886035	76-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Qipchoqsuv QFY	3	41		1	1		1		1							
34	206886218	79-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Buloqboshi QFY	2	47		1	1		1		1							
35	206874042	80-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Guliston QFY	2	57		2	2	1	1		1							
36	206886423	82-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Ko'kbuloq QFY	4	35		1	1		1					1				
37	206886494	84-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Buloqboshi QFY	2	71		2	2		2	1	1							
38	206886558	85-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Moltob QFY	1	35		1	1		1		1							
39	309911308	89-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi	G'allaorol tumani, Madaniyat QFY	4	43		1	1		1		1							
40	205239064	90-sonli umumta'lim Davlat ixtisoslashtirilgan iqtidorli bolalar Nafis san'at maktabi	G'allaorol tumani, Дустлик мфй	1	80		2	2		2		1	1						
41	205844910	G'allaorol tumani Lalmikor 1 сон кх мактаби	Lalmikor shaharchasi	3	82		2	2	1	1		1							
42	207144862	G'allaorol tumani 15-sonli Bolalar musiqa va san'at maktabi	G'allaorol tumani, Дустлик мфй	1	57		2	2	1	1		1							
43	201030653	G'allaorol tumani tibbiyot birlashmasi	G'allaorol tumani, Аламли мфй	1	1873	131	56	75	55	20	3	13		1	2			1	
44	201030749	G'allaorol tumani hokimligi "OBODONLAShTIRISh BOShQARMASI"	G'allaorol tumani, Г.Гулом мфй	2	288	20	9	11	10	1						1			
45	201090144	DON VA DUKKAKLI EKINLAR ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI G'ALLAOROL ILMIY-TAJRIBA STANSIYASI	G'allaorol tumani, Олимлар мфй	4	54		2	2		2		2							
46	201030724	G'allaorol tumani Xalq ta'limi bo'limi	G'allaorol tumani, Г.Гулом мфй	2	102	7	3	4	2	2		1			1				
47	201671932	G'allaorol tuman Davlat sanitariyaepidemiologiya nazorat markazi	G'allaorol tumani, Г.Гулом мфй	2	65		2	2	1	1		1							
48	309866750	Президент мактаби	G'allaorol tumani, Дустлик мфй	1	68		2	2		2	1	1							
49	207332139	G'allaorol iqtisoslashgan davlat o'rmon xo'jaligi	G'allaorol tumani, Г.Гулом мфй	2	86		3	3	2	1					1				
50	206765605	G'allaorol tumani G'allaorol xizvat ko'rsatish texnikuvi	G'allaorol tumani, Madaniyat QFY	4	47		1	1		1		1							

51	305083978	G'allaorol tumani irrigatsiya bo'limi	G'allaorol tumani, Madaniyat QFY	2	44		1	1		1		1							
52	305623676	Галлаорол эко сфера мчж	G'allaorol tumani, Г.Гулом мфй	2	77		2	2		2						2			
53	201089168	ТЙФУК	G'allaorol tumani, Сарбазар мфй	2	129	9	4	5	2	3				1		2			
		жами			**5409**	**183**	**162**	**188**	**92**	**94**	**15**	**52**	**4**	**3**	**13**	**5**	**0**	**1**	**1**